

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 9 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL)	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ	32-41
<i>Самадов Искандар Исматович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI	65-68

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLUKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	139-144
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	171-176
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA)	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI	239-242
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Tўlaganova Gulchexraзахитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjanoich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	263-266
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA)	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI	293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ	302-308
<i>Матажонова Гулноза Каримовна</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI	357-362
<i>Utkirov Abbas Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI – PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 30 August 2024**Accepted:** 5 September 2024**Published:** 15 September 2024*Article / Original Paper***AN ESSENTIAL PART OF ADULT FOLKLORE – ABOUT CHILDREN'S FOLKLORE****Fayzulloyev Otabek Muhammadovich**

Doctor of philosophy in philology, associate professor, BukhSU, professor of "Interfaculty foreign languages" department

Abstract. In the article, children's folklore as a component of folk art represents a whole system that arose in ancient times and continues to develop in new colors and forms over the centuries and grow richer. The article reveals that its main content consists of showing the unique features of one and the same variety, revealing the essence of their determinacy by certain social and everyday conditions of life, defining and generalizing their artistic and aesthetic, social and ideological tasks.

Key words: children's folklore, adult folklore, lullaby, empathy, equality, inclusion, folklorist.

KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA**Fayzulloyev Otabek Muhammadovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, BuxDU, "Fakultetlararo xorijiy tillar" kafedrası professori

Annotatsiya. Maqolada bolalar folklori xalq ijodining tarkibiy qismi sifatida qadimgi zamonlarda yuzaga kelgan va asrlar davomida yangi-yangi bo'yoqlar va shakllarda rivojlanishda davom etgan hamda boyib borayotgan yaxlit bir tizimdirki, bunda janrlar rang-barangligi, asarlar xilma-xilligi muhim o'rin tutishi haqida gap boradi. Maqolada xuddi shu rang-baranglikning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish, ularning muayyan ijtimoiy-maishiy turmush sharoitlari bilan shartlanganligi mohiyatini ochish, badiiy-estetik, ijtimoiy-g'oyaviy vazifalarini belgilash va umumlashtirishning asosiy mazmunini tashkil etishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, kattalar folklori, alla, empatiya, tenglik, inklyuziya, folklorshunos.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N23>

Kirish. Bolalik inson ongini rivojlantirishning eng nozik va ko'p qirrali bosqichidir. Bu bosqichda bolalar folkloridan foydalanish bola ongini shakllantirishda muhim o'ringa va ahamiyatga ega.

Bolalar folklori – xalq og'zaki ijodining tarkibiy qismi. U folklorning tarkibiy qismi sifatida insoniyat badiiy tafakkurining ilk onlaridanoq shakllana boshlagan. Buning uchun ham ijtimoiy, ham ma'naviy asoslar mavjud bo'lgan.

Bolalar folklori go'yo oksimorondir, chunki bolalar qanday qilib badiiy asar yaratishi mumkin, deb qaraladi. Shuning uchun bolalar badiiy ijodkorligiga kattalar yaratadigan

asarlarga xos chuqur mantiqiylik, sermulohazalik, murakkab obrazlilik, nozik qofiya va ravon ritm kabi sifatlarni talab qilish qiyinroq. Uning aksariyat namunalari kattalar tomonidan bolalar uchun yoki bolalar faoliyati haqida yaratilgan. Ammo bolalar yoki o'smirlarning o'zlari tomonidan o'ylab topilgan yoki kattalar qo'shiqlari va maqollaridan ular tomonidan qabul qilingan ko'proq misralarni ham uchratamiz. Shu tariqa bolalar folklori uzoq asrlar davomida xilma-xil shakldagi asarlar hisobiga to'lisha borgan. Bunga kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo'shganlar. Kattalar butun bir tizimdan iborat bolalarni erkalash poeziyasini yaratgan bo'lsalar, bolalar ham o'zlari uchun qiziqarli o'yin-qo'shiqlar ijod qilishgan.

Demak, bolalar folklori asarlarining kimga mo'ljallanganligini hisobga olib, ularni dastlab ikki guruhga ajratish lozim. Bular:

1. Kattalar folklori.

2. Bolalar folklori.

Bolalar folklori tarkibiga quyidagi janrlar kiradi:

1. Alla.
2. Aytim-olqish.
3. Erkalama.
4. Ovutmachiq.
5. Qiziqmachiq.
6. Qaytarmachiq.
7. Aldanmachiq.
8. Yalinchoq.
9. Hukmlagich.
10. Qiqillama.
11. Tegishmachiq.
12. Masxaralama.
13. Chorlama.
14. Chandish.
15. Cheklashmachiq.
16. Sanama.
17. Arazlama.
18. Yarashtirgich.
19. Tarqalmachiq.
20. Tez aytish.
21. Guldur-gup.

Muhimi shundaki, bunday janrlar deyarli barcha xalqlarning bolalalar folklorida mavjud. Faqatgina ularning nomlanishi turli xalqlarda turlicha.

Bolalar folklorining barcha janrlari tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, hayotni tasvirlash shakli va qamrovi vazifasiga qarab, ko'proq lirik turga mansubligi ko'rinadi. Umuman aytganda, bolalar folklori janrlari yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Kattalar bolalarga mo'ljallab ajoyib-g'aroyib ertaklar to'qishgan, bolalar zehnini charxlovchi topishmoqlar, nutqini ravonlashtiruvchi tez aytishlar ijod qilishgan. Shunday jarayonda kattalar bolalarni tarbiyalash maqsadlarini amalga oshirib, pirovard-oqibatda xalq pedagogikasining asoslarini yaratganlar.

Binobarin, o'zbek bolalar folklori butun bir tizimdan iborat poetik folklor tarzida shakllangan va hamon taraqqiy etmoqda.

Har ikkala xalq folklorshunosligida bolalar o'yin folklori quyidagi ilmiy yo'nalishlarga mos prinsiplar asosida tadqiq qilinib kelingani kuzatiladi. Bolalar har doim folklori tinglab, zavqlanishgan va bosmaxona rivojlangandan keyin ham bu davom etgan. Ularning aksariyati bolalar qahramonlarini o'z ichiga olgan.

Erta bolalik (6 yoshgacha bo'lgan bolalar) uchun yaratilgan folklor namunalarida, odatda, umumiy ranglar alifbosi, alifbo harflari, hisoblash – sanash raqamlarini taqdim etish yetakchilik qiladi. Ularda takrorlanuvchi tovush va so'zlar, iboralar, savollar yoki savol-javobli tuzilmalar keltiriladi. Juda kam so'zli qisqa qo'shiqlar, tabiat yoki ijtimoiy hayot hodisalariga tushuntirish beradigan an'anaviy diniy hikoyalar, odatda, xudolarni qahramonlar sifatida o'z ichiga olgan miflar, hayvon yoki qushlarning qahramon darajasidagi xatti-harakatlari orqali axloqiy saboq beruvchi juda qisqa an'anaviy ertaklar, naqllarni qamrab oladi.

Bolalar folklori bolalar uchun yaratilgan barcha katta-yu kichik she'riy va nasiy asarlarni o'z ichiga oladi. U bolaning tilini rivojlantirish uchun juda muhim ta'sirchan harakatlantiruvchi vosita bo'lishi bilan birga, uning faol fantaziyasini ham shakllantirishda rag'batlantiruvchi vositadir.

Bolalar folklori bolalarga axloqiy qadriyatlar va donolikni yetkazishda juda muhim rol o'ynaydi. Uning vositasida bolaning atrofidagi muhitni aniqlash tuyg'ularini rivojlantirish mumkin.

Bolalar folklorida har bir janrning o'z vazifasi mavjud. Masalan, qiziqmachoqlar mazmuni, axloqiy va ijtimoiy ratsionallik haqidagi xabarga ega tasvirlani qamrab olgani bilan bolaning rivojlanayotgan ongida iz qoldirishi mumkin. Buning natijasida bolaning oqilona va konstruktiv fikrlash jarayonini rag'batlantiradi. Ular, xususan, yosh bolalarning ruhiy rivojlanish bosqichlarida axloqiy fazilatlarining takomilida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Allalar bolaning uyqu davrida rivojlanishi va o'sishi jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu haqiqatni barcha millat vakillari to'liq tan oladi. Shu ma'noda alla bolaga aytilganda uning uxlab qolishiga yordam beradigan psixologik usullardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, aniq maqsadlar bilan yaratilgan bolalar folklori namunalari har bir xalq madaniy turmushida o'z o'rniga va qadriga egadir. Bolalar folklori axloqiy va hayotiy qadriyatlarni axloqiy mazmundagi nasriy va she'riy asarlar orqali bolaga yetkazish vositasidir.

Bolalar folklori to'g'ri va noto'g'ri tushunish tuyg'usini uyg'otishi, qo'rqitish, kamsitish va boshqa ijtimoiy muammolarni echishga qaratilgan fikrlash tarzini yuzaga keltirishi mumkin.

Erta bolalik davrida ijtimoiy muammolarga nisbatan oqilona fikrlashni rivojlantirish juda zarur va bolalar folklori bu rolni juda samarali bajarish imkoniga ega. Chunki bolalar

folklori ijtimoiy muammolarni hal qilishda axloqiy xabarni yetkazib beradi. Bolalar folklorida bola psixologiyasi aks etadi.

Bolada empatiya, tenglik, inklyuziya g'oyalari rivojlanishida bolalar folklori muhim o'rin tutadi. Bolalar folklori hayot haqiqatini sodda tilda, oson, hayajonli qilib bolaning nozik ongiga taqdim etadigan manbalardir. Masalan, bolalar musobaqaga asoslangan o'yinlarni o'ynashi jarayonida empatiya tuyg'usi rivoj topadi. Bunda bola boshqa birovning o'rnida va raqobatbardosh, hech qachon to'xtamaydigan dunyoda o'zini qanday his qilishini o'rgana boradi. Yoxud topishmoqlar orqali boshqa birovning his-tuyg'ulari va fikrlariga qanday munosabatda bo'lishni o'rganishlari kuzatiladi.

Bolalar rivojlanib borar ekan, ular uchun yoki ular tomonidan yaratilgan folklorda xabarni yetkazish hajmi kengayib boradi. Bolalar o'smirlik davriga yaqinlashganda, ular uchun mo'ljallangan folklor matni hajmi uzunroq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ba'zi onalar farzandlari tug'ilishidan oldin ularga qo'shiqlar xirgoyi qilishni boshlaydilar. Tug'ilmagan chaqaloqlar onalarini eshitadi va ularning ovozigina munosabat bildiradi degan qarashlar bor. Bu jihatdan DeCasper, Lecanuet, Busnel va Granier-Deferre (1994) tadqiqotlariga e'tibor qaratish mumkin. Qolaversa, bolalar uchun ijro qilinadigan folklor namunalari ota-onalar va bolalar o'rtasidagi aloqani o'rnatishdan tashqari, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga ota-onalarning farzandlari maktabda o'qish jarayonida muvaffaqiyat qozonishi uchun imkoniyatlarini oshirishga ko'mak berishi mumkin. Ular bolalarga hayot zinapoyasiga ko'tarilishiga yordam berishi shubhasiz. Ammo, afsuski, barcha ota-onalar farzandlariga muntazam ravishda folklor aytishmaydi. Bunga, birinchidan, hamma ota-onalar ham uni bilmasligi sabab bo'lsa, ikkinchidan, ular farzandlariga kam vaqt ajatishi sabab bo'ladi. Holbuki, kattalar bolalarga folklor aytishning ham ta'sirchan, ham kognitiv afzalliklarini ko'rishlari shart. Bu afzalliklar quyidagilar bilan belgilanishi mumkin, deb hisoblaymiz:

bola va kattalar o'rtasidagi ma'naviy-ruhiy aloqani mustahkamlaydi;

bolani fantaziya olami yoki hayajonli sarguzashtlar sari yetaklaydi;

ularning hayotini boyitish sifatida adabiyotga ijobiy munosabatini shakllantiradi;

bola yangi lug'atni, matn tuzilmalarini o'zlashtirib boradi;

bolaning tasavvurlarini rag'batlantiradi va diqqatini kengaytiradi;

boshqa odamlarning his-tuyg'ulari va muammolariga hamdardlik, o'z his-tuyg'ulari va muammolari bilan kurashish usullarini o'rganadi:

o'z va boshqa madaniyatlarning merosini tushuna boradi;

tabiat haqida yangi bilimlarni egallaydi va hokazo.

Bolalar bir-biri bilan o'ynashga o'rganib ulg'ayganlarida, ular kattalardan ayricha o'yin va o'yin-qo'shiqlarni yaratadilar.

Ota-onalar va boshqa kattalar, odatda, bolalarga hamma bilgan qo'shiqlarini o'rgatavermaydilar. Bolalar qo'shiqlari o'ziga xos ohang va jozibaga ega bo'lganligi sababli bir guruh bolalardan ikkinchisiga tez o'tadi.

Kattalarning o'zlari ham bir vaqtlar bola bo'lishgan. Shuning uchun ular bolalarni tez tushunishadi. Bolalar folklori har doim kattalar jamiyatini aks ettirgan va u, albatta, aloqa va marketing sohasidagi tez o'zgarishlarning ta'sirini ko'rsatgan. Koka-kola ichish va portlash keltirib chiqaradigan shirinliklar iste'mol qilish xavfi haqida afsonalar va e'tiqodlarning rivojlanishi bunga misoldir.

Ulug' insonlarning bolaligi aks etgan rivoyat va afsonalardan bolalar tarbiyasida alohida foydalanishadi. Masalan, O'rta asr ingliz adabiyotida bolalik haqidagi eng batafsil ma'lumotlar Iso bilan bog'liq. Ularda Isoning bolaligi g'ayrioddiy bolalik bo'lgani qayd etiladi. Bunday hikoyalar o'rta asrlarda paydo bo'lgan va butunlay xayoliydir, lekin ular o'yin, maktabda o'qish jarayonida bola va o'smirlar faoliyatining ko'plab ta'riflarini o'z ichiga oladi. Barchasi g'ayritabiiy hodisalar bilan bog'liq. Masalan, ulardan birida aytilishicha, bolalar sayohat davomida quduqqa, pastga qozonlarini suvga to'ldirish uchun tushmoqchi bo'lishadi. Ularning barchasi birinchi va eng tez bo'lish uchun shoshilishadi. Quduqqa tezroq yetib borgan Iso qozonini to'ldirishni boshlaydi. Ammo Archa qandaydir yomonlik qilishni o'ylaydi. U qozonni sindirib, suvini oqizmoqchi bo'ladi. Lekin, qozon sinmaydi. Shunda Iso do'stlariga o'girilib: "Kelinglar, ko'l bo'yida o'ynaymiz va qozonlarimizni quyosh nurlarining uchiga osib qo'yaylik", – debdi. Hamma Isoning mo'jizasi va mohirligiga tan beribdi.

Rumiy (1207-1270) haqida Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida yozishicha, 6 yoshida tengqurlari tomdan sakrab o'ynashni taklif qilgan. Rumiy esa bu it-mushuk ishi ekanini aytib, undan ko'ra osmon tomiga sekrali deb, yuqoriga uchib ketibdi. Bolalar yig'lab qo'rqqach, tushibdi. "Yashil kisvatlilar (yashil kiyimli farishtalar) olib ketdi, debdi u do'stlariga.

Reymund Kvidelandning "O'lim haqidagi hikoyalar bolalar ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida" (1980) sarlavhali maqolasida bolaning yaqinlari, masalan, otasining o'limiga munosabati beparvo bo'lib ko'rinsa-da, aslida bu bolalarning o'lim haqiqati bilan kelishishga muhtojligini aks ettiradi.

Shunday o'yinlardan biri quyidagi savol-javob hamda qo'l harakati asosida kechadi:

– Siz onangizni o'ldirdingizmi?

– Yo'q!

Har safar savolga "yo'q" deb javob berganda qo'l uzatiladi va bir barmoq pastga aylantiriladi. Bu harakat bosh barmoqdan eng uzoqda joylashgan barmoqdan boshlanadi.

Yoki:

– Otangizni o'ldirdingizmi?

– Yo'q!

– Qo'lingda qurol bilan nima qilyapsan?

Bu o'yinning ijodkori – bevosita yosh bolalarning o'zi. Bunda kichkina barmoq va keyingi ikki barmog'ning pastga aylantirgandan so'ng, cho'zilgan bosh barmoq va qo'shni barmoq qurolning bolalar tasavvuridagi an'anaviy tasvirini beradi. Bunday o'yinlar asosida jamiyatdagi zo'ravonlik haqidagi tashvishlar aks ettiriladi. Ular bolaga aqlli tergovchi rolini o'ynashga ham yo'l ochadi.

Muhokama. Ingliz bolalarining shunday qo'shiqlari borki, unda insonning ulg'ayib borishiga xos xatti-harakatlar tasvirlanib, turli yosh bosqichida turlicha nomlanishi ko'rsatib o'tiladi. Bunga "Miss Suzi" qo'shig'i yaqqol misol bo'la oladi:

Miss Suzi chaqaloq edi, chaqaloq, chaqaloq, Miss Suzi chaqaloq edi va u nima dedi! "Ooh, aah, ooh aah!" (har bir so'zda bir marta bosh barmoq so'rayotgandek ko'rsatiladi).

Miss Suzi maktab o'quvchisi, maktab o'quvchisi, maktab o'quvchisi edi! Miss Suzi maktab o'quvchisi edi va u shunday dedi! "Ooh, aah, ooh aah!" (har bir so'zda bir marta soch yelkadan aylantiriladi).

Miss Suzi o'smir edi, o'smir, o'smir, o'smir edi va u shunday dedi! "Oh, aah, men sumkachamni yo'qotdim! Men uni yigitimning mashinasida qoldirib ketganman!"

Miss Suzi o'qituvchi, o'qituvchi, o'qituvchi edi va u shunday dedi! “Ooh, aah, ooh aah!” (har bir so'zda bir marta barmoq silkitiladi).

Miss Suzi ona, ona, ona edi va u shunday dedi! “Ooh, aah, ooh aah!” (qo'lda go'yo go'dakni silkitganday qilinadi).

Miss Suzi buvisi, buvisi, buvisi edi va u shunday dedi! “Ooh, aah, ooh aah!” (O'tirgan stulida tosh bordek, yuzini burishtiradi).

Miss Suzi jannatga, jannatga, jannatga ketdi, Miss Suzi osmonga ketdi va u shunday dedi! “Ooh, aah, ooh aah!” (Qo'llar qanotlarday silkitib, qoqib qo'yiladi).

Miss Syuzi jahlg'a bordi, jannatga ketdi, Miss Syuzi jahlg'a ketdi va u shunday dedi! “Ooh, aah, ooh aah!” (har bir so'zni vilka bilan sanchgandek qilinadi).

Arqon bilan sakrash paytida aytiladigan “Lizzi Borden” nomli o'yin-qo'shiqda qizcha Lizzi Bordenning bolta olib, onasiga qirqta, otasiga qirq bitta zarba bergani aytiladi. Uning yaratilish tarixida aytilishicha, 1892-yil 4-avgustda Endryu va Ebbi Borden Massachusets shtatining Fall River shahridagi uylarida bolta bilan o'ldiriladi. Ularning qotili sifatida qizlari Lizzi sud qilinadi va qotillikda aybsiz deb topiladi, lekin ko'pchilik Lizzi otasi va o'gay onasini o'ldirganiga ishonishadi. Jurnalist gazetalarni sotish maqsadida yuqoridagi qo'shiqni yozadi va u tezda bolalar folkloriga aylanadi. Lizzi Borden sud jarayonidan keyin jamoatchilik e'tiboridan chetda qolishga harakat qilgan bo'lsa-da, bolalar “Lizzi Borden” qo'shig'ini aytib, uning ortidan ergashishadi.

Qizining ota-onasini shafqatsizlarcha o'ldirishi rolning keskin o'zgarishini aks ettiradi; ota-onasining hokimiyatini hurmat qilish o'rniga, u ularning hayotiga nuqta qo'yadi. Bolalarning “Respublika jangovar madhiyasi”ning mashhur parodiyasi kabi qo'shiqlarda ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa kattalarni o'ldirishi haqida kuylashlari odatiy hol emas. Shunday bo'lsa-da, bolalarning aylim qo'shiqlarida o'qituvchisini otib qo'yganligi haqida gap boradi. “Men bechora o'qituvchimni M16 bilan otib tashladim. Men uni zavq bilan otdim, men uni mag'rurlik bilan otdim. ... Men uning dafn marosimiga bordim, qabriga bordim. Ba'zilar gul otdilar, men granata tashladim!”

Ma'lumki, ba'zi o'quvchilar o'qituvchisining talabchanligini yoqtirishmaydi. Shunday kayfiyatda ular o'qituvchisining yo'q bo'lishini yoki o'zlari uni yo'q qilishni xohlab, xayol surishadi. Yuqoridagi parodiyani shunday kayfiyatning mahsuli deyish mumkin.

Bu kabi qo'shiqlardagi haddan tashqari zo'ravonlikka jiddiy munosabatda bo'lish kerakmi, degan savolga Akerli o'qituvchilarga nisbatan zo'ravonlik harakatlari tashvishga solishi mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq, bolalarning o'qituvchilarni qiynash haqidagi qo'shiqlari ko'pincha taranglikni bo'shatadi va kulgiga sabab bo'ladi.

Ayrim o'yin-qo'shiqlar mazmuniga aholining iqtisodiy qatlami bilan bog'liq farqlar talqini singdirilgani kuzatiladiki, bu bilan bolalar folklorining xuddi kattalar folklori kabi mazmunan ijimoiy-maishiy muammolarni ham qamrab olgani oydinlashadi. Bunga “Pepsi Co” nomli o'yin-qo'shiqni misol qilish mumkin. Uning mazmuni quyidagicha:

Pepsi co, Pepsi co, biz qachon Meksikaga boramiz?

Hech qachon, hech qachon, shunki bizda pul yo'q.

Kimning puli bor? Dengizda cho'milish uchun.

Kimda yo'q, uyda idish ichida yuvinsin.

Natijalar. Folklorshunos Richard Mart 1978-yilning bahorida Xorvatiyaning Velika Gorika shahridagi avtoturargohda qizlarning arqonda sakrab o'ynashini tomosha qilayotganda

ushbu qo'shiqni yig'gan va uni xorvat tilidan ingliz tiliga tarjima qilgan. Bu qo'shiq mazmuni sinfiy farqlarni keskin anglatmoqda. Zagrebning ishchilar istiqomat qiluvchi mahallasida yashovchi qizlar ularning oilalarida plyajga yoki boshqa mamlakatlarga dabdabali sayohatlar uchun borishga yetarli pul yo'qligini bilishardi. Ikki metr uzunlikdagi elastik arqon bilan to'pig'iga, boldiriga, tizzasiga yoki beliga bog'lab sakrash orqali ular iqtisod haqidagi tushunchalarini mana shunday ifodalaganlar.

Ingliz bolalar folklorida saqlanib kelayotgan "Lo'li, lo'li" o'yin-qo'shig'i ham ijtimoiy mazmunga egaligi bilan diqqatni tortadi. Unda lo'liga murojaat qilinib, shunday deyiladi: "Lo'li, lo'li, iltimos, menga erim nima bo'lishini ayting. Boy, kambag'al, tilanchi, o'g'ri, doktor, advokat, boshliq, qassob, novvoy, shamdon yasab sotuvchi, tikuvchi, kovboy, dengizchi?"

Ushbu qo'shiq bolalarning qanaqa kasblar borligi, ular bilan shug'ullanuvchilar nomini qanchalik darajada bilishidan darak beradi. Muhimi shundaki, buni qizlarning "fol qo'shig'i" sifatida ham qayd etish mumkin. Chunki bunda she'r qatori qaysi so'z bilan tugasa, ya'ni uning so'nggi so'zi qizning kelajakdagi bo'lajak erining qaysi kasb egasi bo'lishidan xabar hisoblangan.

Oxirgi yillarda televizorga asoslangan xayoliy rolli o'yinlar namoyishlari keng tarqalmoqda. Bunday rollarni o'ynagan bola o'zini xuddi haqiqiy aktyor yo aktrisa kabi tutadi. Sh.Turg'unov ham Namangan viloyati bolalar folklori namunalari to'plash va ularni tadqiq etish jarayonida keyingi yillarda avj olgan televideniya orqali turli seriallarning berilishi ta'sirida yaratilgan ayrim qo'shiqlardan misollar keltirib o'tgan va ularni postfolklor sifatida to'g'ri qayd qilgan. Masalan,

Jam Bog'o – jangchi,
Yum Yang – qaroqchi.
Yavmi xonim – yaramas,
Qirol unga qaramas.

Koreya tarixiy teleseriali qahramonlari nomi bilan bog'lab yaratilgan ushbu qo'shiq hazil xarakterida bo'lib, uni odatda qizlar "Arqonda sakrash" o'yinining o'ynalishi jarayonida kuylashgan.

Shuningdek, Sh.Turg'unov tomonidan nafaqat seriallarning qahramonlari, balki mashhur futbolchilarning nomiga bog'lab yaratilgan bolalar qo'shiqlari ham aniqlangan. Shunisi aniqki, bolalar bu kabi ijod namunalari orqali teleserial qahramonlariga hamda futbolchilarga o'z fikrlash darajalari doirasida tavsif berishga harakat qiladilar. Ammo, Sh.Turg'unov ta'kidlaganidek, ular bolalar repertuarida ma'lum bir davrdagina faol iste'molda bo'ladi va shundan so'ng asta-sekin unutila borishi mumkin.

Bolalar folklori namunalari bolalarning jinsiga qarab ham farqlanadi. Shuningdek, ular ijro xususiyatiga ko'ra yakkaxon (individual) yoki jo'r (xor) ijroga xoslangan bo'ladi.

Bizningcha, bolalar folklorini yaratilish yoki ijro davriga ko'ra: an'anaviy va zamonaviy tiplarga bo'lish mumkin. Bunda uning yangi mazmun va shakldagi tiplari postfolklor mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Ular zamonaviy turmush voqeligini o'zida motivlashtirishi va obrazlantirishi bilan yangi ekani ko'rinadi.

Xulosa. Xullas, bolalar folklori xalq ijodining tarkibiy qismi sifatida qadimgi zamonlarda yuzaga kelgan va asrlar davomida yangi-yangi bo'yoqlar va shakllarda rivojlanishda davom etgan hamda boyib borayotgan yaxlit bir tizimdirki, bunda janrlar rang-barangligi, asarlar xilma-xilligi muhim o'rin tutadi. Xuddi shu rang-baranglikning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish, ularning muayyan ijtimoiy-maishiy turmush sharoitlari bilan shartlanganligi

mohiyatini ochish, badiiy-estetik, ijtimoiy-g'oyaviy vazifalarini belgilash va umumlashtirishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Turg'unov Sh.D. Namangan bolalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2019. - B.30-34.
2. Turg'unov Sh.D. Namangan bolalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2019. - B.37.
3. Turg'unov Sh.D. Namangan bolalar o'yinlarining ishtirokchilar jinsiga ko'ra tasnifi va lokal xususiyatlari / Материалы XXXVIII Международной научно-практической интернет-конференции «Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации»: Сб. науч. трудов. – Переяслав-Хмельницкий (Украина), 2018. – Вып. 38. – С. 196-198.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).